

O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'atning asosiy ko'rsatkichlari

2025-yil uchun

- I. Muzeylar faoliyati
- II. Madaniy-tomosha tashkilotlari faoliyati
- III. Hayvonot bog'lari, botanika bog'lari, shuningdek, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati
- IV. Axborot-kutubxona faoliyati
- V. Madaniyat va san'at statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Muzeylar faoliyati

Muzey – muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi ([12.09.2008-yildagi O'RQ-177-son Qonuni](#)).

Milliy muzey fondi – O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy turgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari majmui ([12.09.2008-yildagi O'RQ-177-son Qonuni](#)).

Muzeylar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

(tegishli yil uchun)



O'zbekistonda 2025-yilda muzeylar soni **137 tani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **1 taga** (yoki **0,7 foizga**) kamaydi. Shu bilan birga, 2021-yilga nisbatan muzeylar soni **10 taga** oshdi.

¹⁾ Muzeylar soni filiallarni qo'shgan holda keltirilgan.

2025-yilda muzeylarga tashriflar soni **5 474,9 mingtani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **692,3 mingtaga** (yoki **14,5 foizga**) oshdi. Har **10 000 nafar aholiga** nisbatan muzeylarga tashriflar soni 2025-yilda **1 445 ta** bo'lib, 2024-yilga nisbatan **158 taga** (yoki **12,3 foizga**) ko'paydi.

**Muzeylar faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining
hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025-yil uchun)

	Muzeylar soni ¹⁾ (birlik)	Muzeylarga tashriflar soni	
		jami (ming birlik)	10 000 nafar aholiga nisbatan (birlik)
O'zbekiston Respublikasi	137	5 474,9	1 445
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Resp.	6	129,8	636
Andijon viloyati	7	101,0	289
Buxoro viloyati	18	879,5	4 204
Jizzax viloyati	8	22,5	145
Qashqadaryo viloyati	3	265,3	721
Navoiy viloyati	5	39,5	358
Namangan viloyati	2	100,8	319
Samarqand viloyati	14	1 183,1	2 727
Surxondaryo viloyati	2	77,9	262
Sirdaryo viloyati	2	4,8	51
Toshkent viloyati	5	45,8	146
Farg'ona viloyati	12	197,8	473
Xorazm viloyati	18	570,5	2 782
Toshkent shahri	35	1 856,6	5 903

2025-yilda eng ko'p muzey Toshkent shahrida (**35 ta**), shuningdek, Buxoro va Xorazm viloyatlarida (**har birida 18 tadan**) qayd etildi. Eng kam sonli muzey Namangan, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida (**har birida 2 tadan**) kuzatildi.

Muzeylarga tashriflarning katta qismi Toshkent shahri (**1 856,6 mingta**), Samarqand (**1 183,1 mingta**) va Buxoro (**879,5 mingta**) viloyatlarida qayd etildi. Sirdaryo (**4,8 mingta**), Jizzax (**22,5 mingta**) va Navoiy (**39,5 mingta**) viloyatlarida esa muzeylarga tashrif eng kam kuzatildi.

10 000 nafar aholiga nisbatan muzeylarga tashriflar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (**5 903 ta**), Buxoro (**4 204 ta**) va Xorazm (**2 782 ta**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**51 ta**), Jizzax (**145 ta**) va Toshkent (**146 ta**) viloyatlarida kuzatildi.

¹⁾ Muzeylar soni filiallarni qo'shgan holda keltirilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Muzeylar soni \(filiallarni qo'shgan holda\)](#)
[Muzeylarning asosiy fondi eksponatlari soni \(yil oxiriga\)](#)
[Muzeylarga tashriflar soni \(jami\)](#)
[1 000 nafar aholiga nisbatan muzeylarga tashriflar soni](#)
[Muzeylarda o'tkazilgan ekskursiyalar soni](#)
[Muzeylarda tashkil etilgan ko'rgazmalar soni](#)

II. Madaniy-tomosha tashkilotlari faoliyati

Faoliyatining asosiy turi sahna san'ati asarlarini yaratishdan va ularni omma oldida namoyish etishdan iborat bo'lgan madaniyat tashkilotlari (teatrlar, filarmoniyalar, sirkar, konsert tashkilotlari (professional ijodiy jamoalar, musiqiy jamoalar, ansambllar va boshqalar), kinematografiya tashkilotlari va boshqalar) **madaniy-tomosha tashkilotlari** jumlasiga kiradi ([20.01.2021-yildagi O'RG-668-son Qonuni](#)).

Davlat teatrlari faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining
hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025-yil uchun)

	Teatrlar soni (birlik)	Spektakllar (tomoshalar) soni (ming birlik)	Teatrlarga tashriflar soni	
			jami (ming birlik)	10 000 nafar aholiga nisbatan (birlik)
O'zbekiston Respublikasi	41	11,9	4 351,0	1 148
<i>hududlar:</i>				
Qoraqalpog'iston Resp.	3	1,5	322,0	1 577
Andijon viloyati	3	0,8	340,0	974
Buxoro viloyati	2	0,6	230,0	1 099
Jizzax viloyati	2	0,5	166,0	1 069
Qashqadaryo viloyati	2	0,5	169,0	459
Navoiy viloyati	1	0,2	46,0	417
Namangan viloyati	2	0,4	130,0	411
Samarqand viloyati	4	1,3	432,0	996
Surxondaryo viloyati	2	0,6	179,0	601
Sirdaryo viloyati	1	0,3	101,0	1 076
Toshkent viloyati	-	-	-	-
Farg'ona viloyati	5	2,1	622,0	1 487
Xorazm viloyati	2	0,6	507,0	2 472
Toshkent shahri	12	2,5	1 107,0	3 519

2025-yilda eng ko'p teatr Toshkent shahrida (**12 ta**), Farg'ona (**5 ta**) va Samarqand (**4 ta**) viloyatlarida qayd etildi. Eng kam sonli teatr Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida (**har birida 1 tadan**) kuzatildi.

Teatrlarda eng ko'p spektakllar (tomoshalar) Toshkent shahri (**2,5 mingta**), Farg'ona viloyati (**2,1 mingta**) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**1,5 mingta**) ijro etilgan. Eng kami esa Navoiy (**0,2 mingta**), Sirdaryo (**0,3 mingta**) va Namangan (**0,4 mingta**) viloyatlarida namoyish etilgan.

Teatrlarga tashriflarning eng ko'p soni Toshkent shahri (**1 107 mingta**), Farg'ona (**622 mingta**) va Xorazm (**507 mingta**) viloyatlarida qayd etildi. Eng kam tashrif Navoiy (**46 mingta**), Sirdaryo (**101 mingta**) va Namangan (**130 mingta**) viloyatlarida kuzatildi.

10 000 nafar aholiga nisbatan teatrlarga tashriflar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (**3 519 ta**), Xorazm viloyati (**2 472 ta**) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**1 577 ta**) qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Namangan (**411 ta**), Navoiy (**417 ta**) va Qashqadaryo (**459 ta**) viloyatlarida kuzatildi.

Davlat konsert tashkilotlari faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining
hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025-yil uchun)

	Konsert tashkilotlari soni (birlik)	Konsertlar soni (birlik)	Konsertlarga tashriflar soni	
			jami (ming birlik)	10 000 nafar aholiga nisbatan (birlik)
O'zbekiston Respublikasi	51	20 499	11 844,0	3 126
<i>hududlar:</i>				
Qoraqalpog'iston Resp.	5	1 669	907,0	4 443
Andijon viloyati	3	1 128	639,5	1 832
Buxoro viloyati	3	1 093	634,5	3 033
Jizzax viloyati	3	1 082	576,3	3 713
Qashqadaryo viloyati	3	1 097	633,9	1 723
Navoiy viloyati	3	1 068	649,5	5 887
Namangan viloyati	3	1 090	620,2	1 962
Samarqand viloyati	3	1 077	611,7	1 410
Surxondaryo viloyati	4	1 370	769,4	2 583
Sirdaryo viloyati	3	1 072	618,4	6 589
Toshkent viloyati	3	1 077	617,1	1 969
Farg'ona viloyati	4	1 343	864,9	2 067
Xorazm viloyati	3	1 067	670,2	3 268
Toshkent shahri	8	5 266	3 031,4	9 637

2025-yilda eng ko'p konsert tashkilotlari Toshkent shahri (**8 ta**) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**5 ta**), shuningdek, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida (**har birida 4 tadan**) qayd etildi. Qolgan barcha hududlarda ularning soni **3 tadan** bo'lgan.


Konsert tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan eng ko'p konsertlar Toshkent shahri (**5 266 ta**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**1 669 ta**) va Surxondaryo viloyatida (**1 370 ta**) bo'lgan. Eng kam sonli konsertlar esa Xorazm (**1 067 ta**), Navoiy (**1 068 ta**) va Sirdaryo (**1 072 ta**) viloyatlarida o'tkazilgan.

Konsertlarga eng ko'p tashrif Toshkent shahri (**3 031,4 mingta**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**907,0 mingta**) va Farg'ona viloyatida (**864,9 mingta**) qayd etildi. Kam sonli tashriflar Jizzax (**576,3 mingta**), Samarqand (**611,7 mingta**) va Toshkent (**617,1 mingta**) viloyatlarida kuzatildi.

10 000 nafar aholiga nisbatan konsertlarga tashriflar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (**9 637 ta**), Sirdaryo (**6 589 ta**) va Navoiy (**5 887 ta**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Samarqand (**1 410 ta**), Qashqadaryo (**1 723 ta**) va Andijon (**1 832 ta**) viloyatlarida kuzatildi.

Sirk faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (tegishli yil uchun)

Namoyishlar soni
(birlik)



O'zbekistonda Toshkent shahrida joylashgan **1 ta** sirk faoliyat ko'rsatadi. 2025-yilda sirkda o'tkazilgan namoyishlar soni **698 tani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **147 taga** (yoki **26,7 foizga**) oshdi.

2025-yilda sirkka tashriflar **255,5 mingtani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **98,2 mingtaga** (yoki **62,4 foizga**) oshdi. **10 000 nafar aholiga** nisbatan sirkka tashriflar 2025-yilda **67 ta** bo'ldi, 2024-yilga nisbatan **25 taga** (yoki **59,5 foizga**) ko'paygan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Professional teatrlarning umumiy soni](#)

[Opera va balet teatrlari soni](#)

[Musiqali komediya \(operetta\) teatrlari va drama teatrlari soni](#)

[Yosh tomoshabinlar teatrlari, qo'g'irchoq va marionetkalar teatrlari soni](#)

[Professional teatrlarda o'tkazilgan spektakllarning umumiy soni](#)

[Opera va balet teatrlarida o'tkazilgan spektakllar soni](#)

[Musiqali komediya \(operetta\) teatrlari va drama teatrlarida o'tkazilgan spektakllar soni](#)

[Yosh tomoshabinlar teatrlari, qo'g'irchoq va marionetkalar teatrlarida o'tkazilgan spektakllar soni](#)

[Professional teatrlarga tashriflarning umumiy soni](#)

[1 000 nafar aholiga nisbatan professional teatrlarga tashriflar soni](#)

[Konsert zallari va san'at saroylari soni](#)

[O'tkazilgan konsertlar soni](#)

[Konsertlarga tashriflar soni](#)

[Statsionar va ko'chma sirkarga tashriflar soni](#)


**III. Hayvonot bog'lari, botanika bog'lari, shuningdek,
madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati**

Hayvonot bog'lari (zoologiya markazlari) – yovvoyi hayvonlarni tomosha qilish, o'rganish va ko'paytirish maqsadida asirlikda (qafaslarda, kataklarda) yoki yarim erkin (tabiiy muhitga o'xshash sharoitdagi katta maydonlarda) saqlanadigan ilmiy va ma'rifiy muassasalar.

Hayvonot bog'lari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


(tegishli yil uchun)

**Hayvonot dunyosi
namunalari
(turlari) soni**
(birlik)



Tashriflar soni
(ming birlik)

**10 000 nafar aholiga
nisbatan tashriflar
soni (birlik)**



O'zbekistonda **7 ta hayvonot bog'i** faoliyat ko'rsatadi: ular Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida, shuningdek, Toshkent shahrida joylashgan.

2025-yilda hayvonot dunyosi namunalari (turlari) soni **744 tani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **107 taga** (yoki **12,6 foizga**) kamaydi.

2025-yilda hayvonot bog'lariga tashriflar soni **1 465,4 mingtaga** teng bo'lib, 2024-yilga nisbatan **233,4 mingtaga** (yoki **18,9 foizga**) oshdi. **10 000 nafar aholiga** nisbatan hayvonot bog'lariga tashriflar soni 2025-yilda **387 tani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **56 taga** (yoki **16,9 foizga**) ko'paydi.

Botanika bog'lari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (tegishli yil uchun)

Botanika bog'larining
umumiy maydoni
(hektar)



■ Tashriflar soni
(ming birlik)

—○— 10 000 nafar aholiga
nisbatan tashriflar
soni (birlik)



O'zbekistonda **3 ta botanika bog'i** faoliyat ko'rsatadi. Ular Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida joylashgan.


2025-yilda botanika bog'larining umumiy maydoni **113,3 gektarga** teng bo'lib, 2024-yilga nisbatan **6,0 gektarga** (yoki **5,6 foizga**) oshdi.

2025-yilda botanika bog'lariga tashriflar **1 170,3 mingta** bo'lgan va 2024-yilga nisbatan **860,1 mingtaga** (yoki **3,8 barobarga**) ko'paydi. **10 000 nafar aholiga** nisbatan botanika bog'lariga tashriflar soni **309 tani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **226 taga** (yoki **3,7 barobarga**) oshgan.

Botanika bog'i — o'simliklar dunyosi va uning genetik fondini saqlash, o'simliklarni o'rganish, iqlimlashtirish va ko'paytirish, shuningdek, ilmiy, o'quv, ta'lim va ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan muassasadir.

Madaniyat va istirohat bog'lari — shahar, shaharcha yoki qishloqda joylashgan, aholining madaniy hordiq chiqarishi, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish faoliyati uchun mo'ljallangan tabiiy hamda madaniy-rekreatsion hududga ega bo'lgan kompleks va ko'p tarmoqli madaniyat muassasalaridir.

Madaniyat va istirohat bog'lari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (tegishli yil uchun)



O'zbekistonda 2025-yilda madaniyat va istirohat bog'lari soni **161 tani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **25 taga** (yoki **18,4 foizga**) oshdi. Madaniyat va istirohat bog'larining umumiy maydoni **1 830,5 gektar** bo'lgan va 2024-yilga nisbatan **469,5 gektarga** (yoki **34,5 foizga**) ko'paydi. 2025-yilda madaniyat va istirohat bog'lariga **27,0 mln tashrif** amalga oshirilgan va bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan **3,2 mln tashrifga** (yoki **13,2 foizga**) ko'p bo'lgan.

Madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining hududlar kesimida taqsimlanishi (2025-yil uchun)

	Madaniyat va istirohat bog'lari soni (birluk)	Madaniyat va istirohat bog'larining umumiy maydoni (gektar)	Madaniyat va istirohat bog'lariga tashriflar soni	
			jami (ming birluk)	10 000 nafar aholiga nisbatan (birluk)
O'zbekiston Respublikasi	161	1 830,5	27 042,6	7 137
<i>hududlar:</i>				
Qoraqalpog'iston Resp.	9	78,5	120,2	589
Andijon viloyati	20	397,7	365,5	1 047
Buxoro viloyati	11	175,1	631,0	3 016
Jizzax viloyati	4	86,8	356,0	2 293
Qashqadaryo viloyati	5	43,6	186,0	506
Navoiy viloyati	9	80,2	327,5	2 968
Namangan viloyati	5	138,8	9 218,5	29 161
Samarqand viloyati	17	68,2	537,1	1 238
Surxondaryo viloyati	14	58,0	276,1	927
Sirdaryo viloyati	13	90,6	34,0	362
Toshkent viloyati	3	6,8	16,7	53
Farg'ona viloyati	8	49,2	384,0	918
Xorazm viloyati	14	152,9	101,1	493
Toshkent shahri	29	404,1	14 488,9	46 063

2025-yilda eng ko'p madaniyat va istirohat bog'lari Toshkent shahri (**29 ta**), Andijon (**20 ta**) va Samarqand (**17 ta**) viloyatlarida qayd etildi. Eng kam sonlisi Toshkent (**3 ta**) va Jizzax (**4 ta**) viloyatlarida, shuningdek, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida (**har birida 5 tadan**) kuzatildi.

Madaniyat va istirohat bog'larining umumiy maydoni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (**404,1 ga**), Andijon (**397,7 ga**) va Buxoro (**175,1 ga**) viloyatlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkichlar Toshkent (**6,8 ga**), Qashqadaryo (**43,6 ga**) va Farg'ona (**49,2 ga**) viloyatlarida qayd etildi.

Madaniyat va istirohat bog'lariga eng ko'p tashrif Toshkent shahri (**14 488,9 mingta**), Namangan (**9 218,5 mingta**) va Buxoro (**631,0 mingta**) viloyatlarida qayd etildi. Kam sonli tashriflar Toshkent (**16,7 mingta**), Sirdaryo (**34,0 mingta**) va Xorazm (**101,1 mingta**) viloyatlarida kuzatildi.

10 000 nafar aholiga nisbatan madaniyat va istirohat bog'lariga amalga oshirilgan tashriflar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (**46 063 ta**), Namangan (**29 161 ta**) va Buxoro (**3 016 ta**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Toshkent (**53 ta**), Sirdaryo (**362 ta**) va Xorazm (**493 ta**) viloyatlarida kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Hayvonot bog'lari soni](#)

[Hayvonot bog'larining hayvonot dunyosi namunalarining nusxalari soni](#)

[Hayvonot bog'larining o'simlik dunyosi namunalarining nusxalari soni](#)


[Madaniyat va istirohat bog'lari soni](#)

IV. Axborot-kutubxona faoliyati

Axborot-kutubxona faoliyati – axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish va axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha faoliyati ([13.04.2011-yildagi O'RQ-280-son Qonuni](#)).

Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

(tegishli yil uchun)



2025-yilda O'zbekistonda **17,8 mingta** axborot-kutubxona muassasalari kuzatildi va 2024-yilga nisbatan ularning soni **2,8 mingtaga** (yoki **18,7 foizga**) oshdi. Axborot-kutubxona fondi **89,2 mln nusxani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **4,1 mln nusxaga** (yoki **4,8 foizga**) ko'paydi. 2025-yilda axborot-kutubxona muassasalari foydalanuvchilari soni **13,1 mln nafarga** yetib, 2024-yilga nisbatan **0,3 mln nafarga** (yoki **2,3 foizga**) oshdi.

Axborot-kutubxona fondi – tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslarining majmuyi ([13.04.2011-yildagi O'RQ-280-son Qonuni](#)).

Axborot-kutubxona resursi – moddiy obyektida matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot ([13.04.2011-yildagi O'RQ-280-son Qonuni](#)).

Foydalanuvchi – axborot-kutubxona xizmati ko'rsatilishi uchun axborot-kutubxona muassasasida ro'yxatga olingan shaxs ([13.04.2011-yildagi O'RQ-280-son Qonuni](#)).

Axborot-kutubxona faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining
hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025-yil uchun)

	Axborot-kutubxona muassasalari soni (ming birlik)	Axborot-kutubxona fondi (mln nusxa)	Axborot-kutubxona muassasalari foydalanuvchilari soni	
			jami (ming kishi)	10 000 nafar aholiga nisbatan (kishi)
O'zbekiston Respublikasi	17,8	89,2	13 112,7	3 461
<i>hududlar:</i>				
Qoraqalpog'iston Resp.	1,1	4,6	745,6	3 652
Andijon viloyati	1,1	11,9	1 201,8	3 442
Buxoro viloyati	1,0	5,7	578,5	2 765
Jizzax viloyati	0,8	1,8	574,9	3 704
Qashqadaryo viloyati	1,8	4,2	1 064,0	2 893
Navoiy viloyati	0,7	2,7	419,0	3 798
Namangan viloyati	1,5	6,0	1 141,3	3 610
Samarqand viloyati	2,0	10,5	1 318,3	3 039
Surxondaryo viloyati	1,6	3,3	1 029,4	3 456
Sirdaryo viloyati	0,9	1,7	507,5	5 407
Toshkent viloyati	1,4	5,2	1 194,3	3 810
Farg'ona viloyati	1,6	5,3	1 305,1	3 119
Xorazm viloyati	1,1	8,7	766,1	3 736
Toshkent shahri	1,2	17,6	1 266,9	4 028

2025-yilda O'zbekistonda axborot-kutubxona muassasalarining eng ko'p soni Samarqand (**2,0 mingta**) va Qashqadaryo (**1,8 mingta**) viloyatlarida, shuningdek, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida (**har birida 1,6 mingtadan**) qayd etildi. Eng kam soni Navoiy (**0,7 mingta**), Jizzax (**0,8 mingta**) va Sirdaryo (**0,9 mingta**) viloyatlarida kuzatildi.

Axborot-kutubxona fondi hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida (**17,6 mln nusxa**), Andijon (**11,9 mln nusxa**) va Samarqand (**10,5 mln nusxa**) viloyatlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**1,7 mln nusxa**), Jizzax (**1,8 mln nusxa**) va Navoiy (**2,7 mln nusxa**) viloyatlarida qayd etildi.

Axborot-kutubxona muassasalaridan eng ko'p foydalanuvchilar Samarqand (**1 318,3 ming nafar**), Farg'ona (**1 305,1 ming nafar**) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (**1 266,9 ming nafar**) qayd etildi. Eng kam foydalanuvchilar Navoiy (**419,0 ming nafar**), Sirdaryo (**507,5 ming nafar**) va Jizzax (**574,9 ming nafar**) viloyatlarida kuzatildi.

10 000 nafar aholiga nisbatan axborot-kutubxona muassasalaridan foydalanuvchilarning eng yuqori ko'rsatkichlari Sirdaryo viloyati (**5 407 nafar**), Toshkent shahri (**4 028 nafar**) va Toshkent viloyatida (**3 810 nafar**) qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Buxoro (**2 765 nafar**), Qashqadaryo (**2 893 nafar**) va Samarqand (**3 039 nafar**) viloyatlarida kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Axborot-kutubxona muassasalari soni \(jami\)](#)

[Axborot-kutubxona fondi \(jami\)](#)

[Axborot-kutubxona muassasalari foydalanuvchilari soni \(jami\)](#)

[Kitoblar va broshyuralar soni](#)

[Kitoblar va broshyuralarning yillik tiraji](#)

[Gazetalar soni \(nashrlar\)](#)

[Gazetalarning yillik tiraji](#)

[Jurnallar va boshqa davriy nashrlar \(davriy chiqadigan to'plamlar va byulletenlarni qo'shgan holda\) soni](#)

[Jurnallar va boshqa davriy nashrlarning \(davriy chiqadigan to'plamlar va byulletenlarni qo'shgan holda\) yillik tiraji](#)

**V. Madaniyat va san'at statistikasi bo'yicha
uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Madaniyat va san'at statistikasi madaniyat va san'at muassasalarining holati va rivojlanishi, ularning moddiy-texnik bazasi, tashriflar soni, madaniy tadbirlar o'tkazilishi, muzeylar, teatrlar, konsert tashkilotlari, sirkalar, hayvonot bog'lari, botanika bog'lari, madaniyat va istirohat bog'lari, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini, shuningdek, nashriyot va kinematografiya faoliyatining ayrim ko'rsatkichlarini tavsiflaydi.

O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisobotlar hamda vakolatli vazirliklar, idora va tashkilotlarning ma'muriy ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Jamlangan ma'lumotlar madaniyat sohasi, madaniy infratuzilma, madaniyat muassasalariga tashriflar, madaniy-dam olish faoliyati, muzey, teatr, konsert, kutubxona va kinematografiya yo'nalishlarining holati va rivojlanishini tavsiflash uchun foydalaniladi.

Muzeylar va madaniy meros to'g'risidagi statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tomonidan taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar asosida shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar muzey fondlari, muzey eksponatlari turlari, tashriflar soni, shuningdek, muzeylar faoliyati va madaniy meros obyektlari holatini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Teatrlar faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan davlat teatrlari bo'yicha taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar asosida shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar teatrlarning moddiy-texnik bazasi, tomosha zallari sig'imi, spektakllar va tashriflar soni, shuningdek, teatr faoliyatiga oid boshqa ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Konsert tashkilotlari va sirklar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan konsert tashkilotlari, statsionar va ko'chma sirkalar bo'yicha taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar asosida shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar asosida konsertlar, tashriflar va doimiy jamoalar soni, shuningdek, konsert tashkilotlari hamda sirkalar faoliyatiga oid boshqa ko'rsatkichlar shakllantiriladi.

Hayvonot bog'lari, botanika bog'lari, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlar yillik **1 madaniyat (bog'lar)** "Hayvonot bog'i, botanika bog'i, madaniyat va istirohat bog'i faoliyati to'g'risidagi statistika hisoboti" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Ushbu hisobotni barcha mulkchilik shakllaridagi hayvonot bog'lari, botanika bog'lari, shuningdek, madaniyat va istirohat bog'lari taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlar asosida dam olish obyektlari, attraksionlar, tashriflar, xodimlar soni, hayvonot va o'simlik dunyosi vakillari soni hamda boshqa ko'rsatkichlar shakllantiriladi.

Axborot-kutubxona va axborot-resurs muassasalari faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlar Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar asosida shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar kutubxona tarmog'i, kutubxona fondi, foydalanuvchilar, kitob berish va kutubxona faoliyatining boshqa ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Madaniyat bo'yicha jamlangan statistik ma'lumotlar madaniy infratuzilma holatini, madaniyat muassasalariga tashriflar darajasini, madaniy-dam olish faoliyati rivojlanishini, aholi uchun madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini baholash imkonini beradi.

Foydali havolalar:

[O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni \(12.09.2008-yildagi O'RO-177-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasining "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni \(20.01.2021-yildagi O'RO-668-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni \(13.04.2011 yildagi O'RO-280-son\)](#)

[YUNESKOning Madaniyat statistikasi tizimi – 2009](#)

[YUNESKOning Madaniyat statistikasi tizimi – 2025 \(UNESCO Framework for Cultural Statistics, FCS 2025\)](#)

[Madaniyat sohasida statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: (71) 203-80-00 (ichki raqam: 1305)

